

TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Elmurodova Lobar KIUT magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonidagi tarbiya darslarini tashkil etishda texnologik yondashuvlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, texnologik yondashuv, tarbiya darslari, boshlang'ich sinf o'quvchilari, didaktik ta'lim.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida har bir fanni texnologiyalashtirish va ularni texnologik yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fanlarni texnologiyalashtirish XX asrning 80-90-yillariga kelib barcha rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini qamrab oldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarbiya jarayoni yoshlikdanoq inson ongiga singdiriladigan jarayon bo'lib, dastlab u oila muhitida shakllanadi va keyinchalik esa maktabgacha ta'lim muassasalari hamda maktab dargohlarida bu jarayon ta'lim bilan birgalikda uyg'unlashadi. Butun bir jamiyatning, mamlakatning rivojlanishi, jahon reytinglaridagi darajalari yosh avlodining hozirgi kundagi ta'lim va tarbiyasining ustunligiga bog'liq bo'lib bormoqda.

Ta'lim va tarbiya borasida gap ketar ekan, biz shuni anglashimiz lozimki, bu bugunning masalasi emasligini, insoniyat yaralganidan buyon bu ikki tushunchaga alohida urg'u berishini, asosiy maqsadi ham - millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar o'z farzandlariga go'zal ta'lim-tarbiya berish bo'lgan. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek: "Ta'limi tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir". Shunday ekan, ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'un holda olib borish ta'lab etiladi.

Shu fikrlar inobatga olingan holda, mamlakatimizda bilamizki, 1-sinf dan to 11-sinfga qadar "Tarbiya" fanlari yo'lga qo'yildi. Maktab o'quvchilarini har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ulardagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Tarbiyaviy darslarni olib

borishning yaxlit, tizimli yondashuvi tarbiya jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “Agar mendan sizni nima qiynaydi deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman”, - degan fikrlarini aytib o‘tganlar.

Tarbiyaning maqsadi- ijtimoiy hayotning rivojlanishidan, jamiyatning turli yo‘nalishidan, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlardan, davlatlararo siyosiy aloqalardan kelib chiqadi. Hozirgi Yangi O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi- har jihatdan mukammal bo‘lgan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsadi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boriluvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidir. O‘zbekiston Respublikasida barkamol shaxsni yuksak ma‘naviy axloqli, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalash maqsadi ta‘lim-tarbiya ishlarining mazmunini belgilaydi.¹

Tarbiya jarayoni deganda, avvalo, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik faoliyatining kechishi va rivojlanish jarayoni tushuniladi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish esa- aniq maqsadga ijtimoiy g‘oyaga asoslanib, o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi sanaladi.²

Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari:

- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- uzoq muddat davom etishi (tarbiya natijalari tez sur‘atlarda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi);
- uzluksizlik (o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi uzluksiz va tizimli harakatlari);
- yaxlitlik;

¹ 1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi 2000. B-256.

² Azimova Lobar. Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya nazariyasi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2022. 14-son.



-ikki tomonlama aloqa hamda qarama-qarshilikning mavjud bo'lishi;

O'z-o'zidan tarbiya darslaridagi texnologik yondashuv qay tarzda amalga oshadi, degan savol tug'ilishi tabiiydir.

Texnologik yondashuv-bu ta'lim jarayonini tashkil etishda ilg'or va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslar tizimini zamonaviylashtirishdir.

Pedagogik texnologiya-bu o'quvchilarning qobiliyatini, bilim, ko'nikma va malakalarini, imkoniyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahoratidir. Bunday ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ularda o'rganayotgan fanga nisbatan qiziqishini oshiradi, bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning amaliyotda erkin foydalanishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv:

-ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashi ;

-o'qish va o'qitish jarayonini uzviy bog'liq holda bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;

-ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

-loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini nazarda tutadi.³

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarini tashkil etishdagi texnologik yondashuv loyihasi quyidagicha bo'ladi:

1. Avvalo, dars mavzusini aniq qilib olish;
2. Tarbiya darsiga oid materiallar yig'ish;
3. Darsning maqsad va vazifalarini belgilash;
4. Darsning mazmunini ishlab chiqish;
5. Darsning shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
6. Dars o'tish jarayonida vaqtni inobatga olish;
7. O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish;
8. Dars yakunida faolligiga ko'ra rag'batlantirish.

³ Boshlang'ich ta'lim uchun didaktik materiallar. Sh. Nurillayeva, O. Haydarova. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 7-b.



Dars o'tish jarayonida, albatta, o'quvchilarning individual yoshi, qiziqishi inobatga olingan holda interaktiv metodlardan foydalanish muhim.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, yosh avlodning kamol topishida umumta'lim fanlari, xususan, "Tarbiya" fani muhim ekanligini angladik. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", - deganlaridek, yoshlikda berilgan tarbiya ham yosh avlodning butun bir kelajagini hal qiluvchi muhim vosita sanaladi. Bu jarayonda, ya'ni "Tarbiya" darslarini muvaffaqiyatli olib borish jarayonida esa pedagoglardan katta mas'uliyat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi 2000. B-256.
2. Boshlang'ich ta'lim uchun didaktik materiallar. Sh. Nurillayeva, O. Haydarova. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 7-b
3. Azimova Lobar. Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2022. 14-son.

Research Science and Innovation House